Shakllarning tabiiy chegaralarining tashkil etuvchi siluet ramkadan iborat bo`lib kostyumning yechimlari shu ramka doirasida xal kilitnadi.

Kiyimning konstruktsiyasini kiyim alohida qismlarining, detallarning konturlarini chiziqlar deb olsak bo`ladi. Keyim kompozitsiyasi to`g`ri, egri va siniq chiziqlardan tuziladi.

Kiyimda quyidagi asosiy chiziq guruppalari bo`ladi.

Siluet chiziqlari - shaklning tashki konstruktsiyasi chegaralovchi chiziqlar.Konstruktiv chiziqlar - kiyim shaklini hosil kilishdagina q

atnashadigan chiziqlar: yelka choklari, yon choklar, vitochkalar, yeng o`tkazish choklari va hokazo.

Konstruktiv - deqorativ chiziqlar ham shakl hosil kiluvchi, ham deqorativ vazifalarni bajaruvchi chiziqlar: burtmalar, koqetlarni ulash choklari, kirkmalar, mayda taxlamalar, taxlamalar, burtma burmalar, drapirovkalar, burtmalar va hokazo.

Deqorativ chiziqlar - deqorativ vazivfalargina bajaruvchi chiziqlar: quyma burmalar, ikki tomonlama quyma burmalar, tasmalar, to`rlar, bezak detallar, furnitura, kashtalar, bantlar va hokazo.

Chiziqlar kiyimda katta rol o`ynaydi, chunki ular nazarimizni shaklning konstruktiv yo`zasi buylab etaklab, harakat (dinamika) hosil qiladi-da, bu qishi gavdasini ma`lum ko`rinishida idroq etilishiga ta`sir qiladi (gavdani o`zaytirib eki pasaytirib, gavda xajmini kyengaytirib eki kichraytirib ko`rsatadi). Bundan

tashkari nazarimiz (karashimiz) harakatini chiziqlar erdamida gavdaning ma`lum qismida tuxtatib turish imkoniyatlariga ega bulamiz. Shaklning katta kichikligi. Shaklning bu xususiyatiga kiyim shakli katta kichikligi bilan odam gavdasining nisbati tariqasida, shuningdek ikki eki uch shaklning ularning bir-biriga taqqoslayotgandagi nisbati tariqasida qaraladi. Faqat ko`rinishi o`xshash kiyimlarnigina va ularning tarkibiy qismlarning katta kichiklik jihatidan taqqoslash mumkin.Katta bilan kichkina taqqoslaganda shaklning katta kichikligi umuman xaeldagina kattalashib eki kichiklashib ko`rinadi.Masalan, bu umuman kiyim shaklini eki undagi alohida qismlarning ko`rinishdagi ogirlik miqdori. Shakl massasining ko`rib idroq etilishiga kuydagilar taysir etadi; Shaklning katta kichikligi-kattaroq shaklning massasi kattaroq tuyuladi; Xajmdorlik darajasi - xajm xarakteridagi shaklning massasi maksimal, chiziqli xarakterdagi shakl massasi esa minimal bo`lib ko`rinadi; Shaklning o`z chegarasi doirasida konstruktiv, konstruktiv-dekorotiv va dekorotiv chiziqlarga qanchalar tulganlik darajasi - kiyim shakli chiziqlarga siyrak to`lgan bo`lsa, massasi minimal, yeng ko`p to`lgan bo`lsa massasi maksimal bo`lib ko`rinadi.

Materialning rangi, rasmi va fakturasi - fonini zich to`ldirib turgan yirik rasmli, odmi yoki tuk rangi materiallar va fakturasi yaltiroq materiallar massasi maksimal, fonini siyrak to`ldiribi turgan mayda rasmli ochiq rang, oqish materiallar va fakturasi siyrak materiallar massasi minimal bo`lib ko`rinadi.

Kiyimlarni loyixalayotgan uning massasini yoshga, mavsumga va nimaga mo`ljallanganiga boglab hisobga olish kerak. Masalan, yasli eshidagi va maktabgacha eshdagi bolalar kiyimining massasi yengil bo`lishi kerak, shuning uchun ularni hamma vaqt ochiq, mayin rangli, mayda siyrak rasmli materiallardan tiqiladi; qishki kiyim ham ko`rinishda yengil bo`lishi kerak; chunki uning tabiiy vazni nisbatan katta bo`ladi, shuning uchun ular xurpaygan tukli fakturali materiallardan tiqiladi; maktab bitiruvchilarining tantana marosimidagi ko`ylaklarini oq, pushti, havorang va boshqa rangdor gulli materiallardan tikiladi, chunki bunda, yoshlikaa hayolchanlik xos bo`lganligi uchun, sho`xchanlik, qushdek yengillik, parvoz hissi sezilib turishi kerak.

**Kompozitsion xususiyatlari. Kompozitsion yaxlitlikni yaratish uchun qo`llaniladigan qonuniyatlar sabablari.** Kostyum kompozitsiyasining uyg`un bir butunlik sifatida shaklning yaxlitligi, simmetrik va assimmetrik , statiklik va dinamiklik kabi qator xususiyatlari bor.

Shaklning yaxlitligi. Shaklning yaxlitligi konsiruktiv yechim bilan uning uning kompozitsion mujassamligi urtasidagi aloqa mantiqini va uyg`unligini aks ettirgan bo`ladi.

Har qanday kompozitsiyani asosiy elementlar bilan ahamiyati kamroq va ikkinchi darajaliroq elementlarning bir biriga buysunganligiga asoslangan muayyan sistema deb karalsa bo`ladi. Bunda asosiy buysungan qismlar butunlik tashkil etib, o`zaro bir - birini kuchaytiradi. Kompozitsion shaklda, shu jumladan kostyumda ham ham albatta asosiy qism yoqi kompozitsion shakl mavjud bo`lib, boshqa qismlar unga buysundirilishi kerak. Asosiy qismi yaxlit kompozitsiyada xukmron bo`lib turadi.

Kompozitsion markaz gavdaning istalgan qismida bo`lishi mumkin. Masalan, u yuzga yaqin joyda, belda, ko`krakda, buksada, oyoq yaqinida, oldinda yoqi orkado va xakazo erda bo`ladi. Kostyumning istalgan qismi - masalan, bosh kiyim, ustkiyim, oyoq kiyim, so`mka, biron bezak vaxakazo kompozitsion markaz bo`lishi mumkin. Ust kiyimning istalgan qismi ham - ko`krak qismi, yubka, yenglar, yoqa va boshqalar kompozitsion markaz bo`lishi mumkin. Asosiy qismi kostyumda qanday joylashtirish jins yosh alomatlariga (katta yoshlilar uni yuz yaqinida joylashtirishadi, yasli yoshidgi bolalar uchun esa u yuz atrofida yoqi oyoq yaqinida bo`ladi), gavda tuzilish turiga (tula qishilar uchun asosiy qismni belda, buksada bo`lishi tavsiya etiladi) va kiyimning nimaga mo`ljallanganiga bog`liq .

Shakl elementlarni o`zaro tengsizlikni belgilaydigan, kompozitsion markazning boshqa qismlardan ustunligini takidlab beradigan xususiyatlarni qonuniyatlari asosida kompozitsion markazni bo`rttirib ko`rsatishga erishiladi. Quyidagi shu qonuniyatlarni ko`rib chiqamiz.

Miqdor qonuni. Bir turli bezakning katta kichikligi, xajmi, massasi yoqi

miqdori kattaroq bo`lgan boshqa qismlarda ustunroq kelib turadi.

Markazda bo`lish qonuni. Bo`rttirib kursatiladigan qismning nisbatan markaziy joyda bo`lishi boshqa hamma jihatlari teng bo`lgan paytda shu qismni asosiy kompozitsion markaz qilib ko`rsatadi.



**18-rasm. Kompozitsion yaxlitlik**

Sifat qonuni. Xususiyati yoki bir gurux xususiyati jihatidan ko`proq bo`lgan qism ustun bo`lib turadi. Rasmiy xarakterda bo`lgan har qanday turli bezaklarning har xil aktivligidan va sifatidan foydalanish asosiy qismni bir butundan ajratib ko`rsatish priyomlaridan biri bo`ladi.

Ma`no omili qonuni.Bir butunning ma`nosi bor bezakli qismda (emblema, gullar va boshqalar) rasmiy xarakterdagi bezakli qismlardan ustun turadi.

**Kostyumda dinamiklik va statiklikni yaratish sabablari.** Kompozitsiyaning ifodaliligi, uning tushunishga kulayligi shaklning buysingan qismlardan bosh kompozitsion markaz tomon harakatda bo`lib ko`rinishi (dinamikasi) kay darajada hosil kilinganligiga bog`liq . Nimaiki burtirilayotgani aniq bo`lishi uchun, harakatni kostyumning qaysi qismiga karalsa ham, dinamika rassomning bo`rttirib kuygan qismini ko`rsatadigan bo`lishi kerak.

Statiklik - shakl turgunligining, tinchlik holatining bo`rttirib ifoda etilganligidir. Shaklning statikligi o`lchamlar tyengligining yoqi o`lchamlar nyuansini xarakterlaydi.

O`lchamlardagi kontrastlik qaysi miqdor ko`p bo`lsa, usha tomonga yunalgan dinamika hosil qiladi. Shaklning dinamikasi ham shaklni qismlarga kontrast bulaklashda paydo bo`ladi. Bunday xolda kattaroq qismdan kichikroq qism tomon harakat paydo bo`ladi. Shakl ichidagi chiziqlar yunalishining xarakteri qandayligiga qarab shaklning turlicha yunalganligi hosil bo`ladi, uning dinamikligi kuchayadi. Bir tusli, lekin tukligi har-xil bo`lgan 2ta xromatik ranglar yoqi och-tukligi har-xil 2ta axromatik ranglar birga kushilganda harakatda bo`lib ko`rinish yo`zaga keladi. Aktiv ranglar o`zi tomon harakat qiladi.

Kiyimni modellashtirishda to`zilmalar dinamikasi kyeng ishlatiladi. Gavdani ko`rib, idroq etish kostyumdagi dinamiaga qanday ta`sir etilganligiga bog`liq: agar harakat yuqoriga tomon yunalgan bo`lsa, gavda darrozroqday, pastga tomon yunalgan bo`lsa, kaltaroqday ko`rinadi.

**Simmetriya va assimmetriya.** Simmetriya - kompozitsiyaning yeng yorkin va ko`zga tashlanib turadigan xususiyatlaridan biri.



**19-rasm. Simmetriya va assimmetriya.**

«Simetriya... uning yordamida inson bir necha asrlardan beri tartibga, go`zallikka va kamolatga erishmoqchi va buni yaratmoqchi bo`lgan usha g`oyadir» (G. Veyl. Simmetriya. M., nauka, 1968, 37 bet.). Demak simmetriya o`ziga xos go`zallik normasi ekan.

Kiyim kompozitsiyasida  simmetriya masalalari muhim rol o`ynaydi. Bu ikki jihatda: materialdagi rasm kompozitsiyasida vak kostyumni o`zini shakllantirishda o`z aksini topadi. Kostyumlarda kiyimning alohida qismlari, uning detallari ,  rangi , bezagi , furniturasi va shu kabilarni simmetrik joylashtirilishi mumkin.

Tabiatda mutlak simmetriya bulmaydi. Kostyumda ham ko`pincha simmetriyadan chetga chikiщlar bo`lib, bu uning nimaga mo`ljallanganligiga , ishlatilish sharoitining xarakteriga, ishlab chikarishdagi texnologik sharoitga , badiiy obrazlilik vazifalariga bog`liq bo`ladi.

Asimmetrik kompozitsiya ham simmetrik kompozitsiya singari funktsional vazifani xal etishning ob`ektiv natijasi bo`ladi. Lekin asimmetrik shakl ustida ishlash murakkabrogu kompozitsion muvozanatni nozik his etishni, badiiy butunlikni ta`minlash darajasida tarakkiy topgan intiutsiyani talab qiladi.

Asimmetriyani kundalik kostyum kompozitsiyasida yorkin ko`zga tashlanadigan emasligi undan shakl xususiyatlarining ozg`ina qismida foydalanishni bildiradi. Amalda bunday kompozitsiyalar simmetriya ichida asimmetriyani ko`rsatish maqsadida xal etiladi. Bashang kiyimdagi yorkin ifoda etilgan  asimmetriya kiymni odatdagidan boshqacha, yorkin ko`rinishli, dinamik qilib turadi.



**20-rasm. Statiklik va dinamiklik**

Statiklik va dinamiklik. Kompozitsiyaning ifodaliligi uning tushunishga kulayligi shaklning buysungan qismlaridan bosh kompozitsion markaz tomon harakatda bo`lib ko`rinishi(dinamikasi) kay darajada hosil kilinganligiga bog`liq. Nimaiki burtirilayotganligi aniq bo`lishi uchun, harakatni kostyumning qaysi qismiga karalsa ham, dinamika rassomning bo`rttirib kuygan qismini ko`rsatadigan bo`lishi kerak.

Statiklik - shakl turgunligining tinchlik holatining bo`rttirib ifoda ettirilganidir. Shaklning statikligi o`lchamlar tyengligini yoqi o`lchamlar nyuansini xarakterlaydi.

O`lcham lardagi kontraslik qaysi miqdor ko`proq bo`lsa , usha tomonga yunalgan dinamika hosil qiladi.

Shaklning dinamikasi ham shaklni qismlarga kontrast bulaklashda paydo bo`ladi. Bunday xolda kattaroq qismdan kichikroq qism tomon harakat paydo bo`ladi.

Shakl ichidagi chiziqlar yunalishini xarakteri qandayligiga qarab shaklning turlicha yunalganligi hosil bo`ladi, uning dinamikligi kuchayadi.

Bir tusli, lekin tukligi har xil bo`lgan 2ta xromatik ranglar yoqi och tukligi har xil 2ta axromatik ranglar birga kushilgandi harakatda bo`lib ko`rinish yo`zaga keladi. Aktiv ranglar o`zi tomon harakat hosil qiladi.

Keyingi modellashtirishda to`zilmalar dinamikasi kyeng ishlatiladi.

Gavdani ko`rib idroq etish kostyumdagi dinamikaga qanday ta`sir etganligiga bog`liq: agar harakat yuqoriga tomon yunalgan bo`lsa, gavda darrozroqday, pastga yunalgan bo`lsa, kaltaroqday ko`rinadi.

**Kostyum kompozitsiyasida rangning roli.** Predmetning yeng muhim informatsion sifatlaridan biri rang hisoblanadi.Amaliy sanat predmetlarida rangni vazifasi turlicha.Bular psixologik, ijtimoiy, estetik vazifalardir.

Rang xayot va mamot simvoli kuvonch va xafalik ifodasi bo`lib kelgan: u iliklik va sovuklik, quruqlik va namlik, yengillik va vazminlik hissini berishi mumkin; bizning his tuy gularimizda ham rang tuyg`usi bor: «qora kun», «oq kungil», «yorkin niyatlar», «qora niyat», «oq yul», - bularning hammasi rangning

psixalogik vazifasini bildiradi.

Turli tarixiy davrlarda rangga, rang simvolikasiga munosabat turlicha bo`lgan. Masalan, kuchmanchilar yorkin tuk rangni makul kurgan bo`lsa, utroq xalklar ochiqroq murakkab rangni yoqtirgan. Rang ma`lum ijtimoiy tabakalanishni ifoda etgan. Masalan, kadimgi rimda kirmizi toga plashch kiyishga imperatorgina xakli edi. Diniy mansubik qaysi rangni kostyum kiyishni belgilab berardi. Masalan, ingliz puritamlari qora kiynsalar katoliklar aksincha olachipor kostyum kiyardilar.

Urushlar, epidemiya, ocharchilik odmi kiyimlar tarkalishiga sabab bo`lsa, ulardan keyin yorkin kiyinish odat tusiga kirar edi.

Rang hamma vaqtlarda jins, yosh farkini bildiradigan vosita bo`lgan. Balalar kiyimi nozikroq bo`ladi, usmirlar kontrast ranglarni ma`kulroq kuradi, katta yoshdagilarga shuqurroq tusdagilari yoqadi. Ayollarning kiyimlari erkaklarning kiyimidan yorkinroq va ko`p rangliroq bo`ladi. Tabiatdagi hamma ranglar xromatik (spektr ranglari bilan kirmizi) va xromatik (oq, kulrang, qora) ranglarga bulinadi.

Xromatik ranglarning xususiyatlari quyidagilar:

* rang tusi - rangning shartli belgisi (qizil, kuk, tuk sariq, havorang va xakazolar) rangning nomi shartli yoqi birorta predmet , usimlik nomiga yaqinlashtirib aytiladi (limonrang, apelsinrang, urikrang va xakazo);

* Rang tukliligi - rang kuchining va xromatik rangga axromatik rang aralashgani bilan xarakterlanadigan rang tusli qanchalik sofligining kursatkichi;

* Oqishlik - xromatik rangning oq rangga yaqinlik darajasi.

Axromatik ranglarda fakat oqishlik xususiyatigina bo`ladi. Spektrdagi ranglar yeng sof, yeng tuk ranglar bo`ladi. Oq aralash ranglarni pastel ranglar deyiladi. Kulrang kushilsa, tukligi kam bo`lgan odmi ranglar chiqadi.

Agar spektr ranglariga kirmizi rang kushib, ularni doira buylab joylashtirilsa, ranglar doirasi hosil bo`ladi. Sariq,kuk,qizil va yashil ranglar shu doiradagi asosiy ranglar hisoblanadi, chunki ularda ranglar doirasidagi o`zlariga kushni ranglar tusi ham, aralashmasi ham bulmaydi. Doiradagi kolgan ranglar

oralik ranglar hisoblanib, ular bir biriga kushni asosiy ranglarni aralashtirishdan kelib chiqadi.

Diametrlarning karama-karshi uchlaridagi ranglar qushimcha ranglar deyiladi. Optik aralashish natijasida ular oq rang hosil qiladi. Bu ranglarda bir-birini tuqroq va kuchaytirib ko`rsatish kobilyati bor. Masalan, YAshil rang qizil rang yonida yashilroq, qizil rang esa qizilroq ko`rinadi (yashil utloqdagi lola kizgaldoq bunga misol bo`ladi).

Ranglarning gavdani o`zgartirib ko`rsatish xususiyati ham bor. Gavdani ilik (sagish qizil va va sargish yashil) ranglar yaqinlashtirib va kattalashtirib ko`rsatadi, sovuk (kuqish qizil va kuqish yashish) ranglar o`zoqlashtirib va kichraytirib ko`rsatadi. Qora rang gavdani maksimal o`zoqlashtirib va kichraytirib, oq rang esa maksimal yaqinlashtirib va kattalashtirib kursatadi.

Kostyum kompozitsiyasini yaratishda ranglar monantligi (garmoniya) katta ahamiyatga ega.Kiyimda ko`pincha monoxrom (yakkarang) li birga kushilishlar uchraydi - bu rang tusi jixaitidan bir xil, lekin oqishligi har xil ranglarning birga kushilib kelishi .Xromatik ranglarning ikki rangli monantligi quyidagi printsiplarda yo`zaga keladi: O`xshash ranglar – bir xil asosiy ranglardan hosil bo`lgan va ranglar doirasining bir choragidagi ranglarning biriga kushilgani,;

Kontrast ranglar - har xil asosiy ranglardan hosil bo`lgan va ranglar doirasining karama-karshi turgan choraklaridagi ranglarning (sargish qizil bilan kuqish yashil va kuqish kiziol bilan sargish yashilning) biriga kushilgani;

O`xshash - kontrast ranglar - bitta mushtarak asosiy rang va ranglar doirasining yonma yon choraklaridagi kontrast asosiy ranglari bor ranglar (sargish qizil bilan kuqish qizillar, kuqish qizil bilan kuqish yashillar, kuqish yashil bilan sargish yashillar va sargish yashil bilan sargish qizillar) birga kushilgani.

Ko`p rangli monantlilik uchburchak va to`rtburchak printsipida to`ziladi. Axromatik ranglarning ikki rangli birga kushilganidagi monantlik kontrastlik va Nyuans printsipida, uch rangli birga kushilganlikdagi monantlik esa miqdor va sifat (oqishlik) jihatidan o`zaro turli nisbatlar asosida to`ziladi. Masalan, ko`plab oqish ranglar bilan oqishligi unga yaqin o`rtacha va kam daraja odmi rangdan.



**21- rasm. Kostyum kompozitsiyasida rangning roli**

Xromatik va axromatik ranglarning biriga kushilgani kiyim kompozitsiyasija juda ifodali bo`lib chiqadi. Oq rang sof xromatik rang tusining kuchi va jarangdorligi yo`zaga keladida bayramona manzaralilik hissi tugiladi; oq rang bilan mayin ranglar (oq havo rang,oq bargikaraam va boshqalar) o`zviy va osonggina kushilib, soflik va bashanglik hissini yo`zaga keltiradi.

Qora rang bilan sof xromatik ranglar bir biriga kushilib, ko`zga tashlanib turadigan va keskin ko`rinadigan ranglar hosil qiladi. Qora rang tusning yorkinligini va sofligini bir qadar kamaytirish xususiyatiga ega.

Oralik ranglar ham xuddi shu qonuniyatga buysinadi..

Monantlik birlashadigan ranglarning miqdoriga ham, sifatiga ham bog`liq.

Ranglar kompozitsiyasini ishlab chiqayotgan ranglarning baravar kontrastligi hodisasini - rangning unga tegib turgan va uni urab turgan ranglarga bog`liq o`zgarib ko`rinishini hisobga olish kerak. Bunda xromatik kontrast va oqishlik kontrasti bo`ladi. Masalan, sariq limon qizil dasturxonda tuk sariq tusga kiradi, sariq dasturxon ustida esa ochroq sariq bo`lib ko`rinadi. Atrofidagi ranglar ta`sirida rang oqishligining o`zgarishi oqishlilik kontrasti deyiladi. Masalan, limon odmi dasturxonda ochroq, oq dasturxonda esa to`qroq rangli ko`rinadi.

Tyegishib turgan ranglar bilan o`zaro ta`sir yuk ranglar neytral ranglar deyiladi. Kulrang, kukimtir kulrang, yashilroq kulrang va boshqa ranglar ana shunday ranglarga kiradi.

Baravar kontrastlik hodisasini hisobga olish - bet, ko`z, soch,ranggiga mostlab kiyim rangini tanlashda juda muhim. Nomakbul rang ya`ni rang kontrasti bo`lib kolsa, bet bilan kiyim orasiga neytral rangli yoqa, bezak gazlama, sharf, kosinka va boshqa ko`rinishdagi neytral rangli yul kurish.

Rangni idroq etish suniy yoritish, materialning fakturasi va zichligi qandayligiga qarab o`zgaradi.

**Kostyum to`zishdagi metrik va ritmik qonuniyatlar.** Ritm tushunchasi umumiy ko`rinishda - bu shakl elementlarining navbatma-navbat qonuniy almashlanib turishi. Kostyum kompozitsiyadagi ritm kostyumni tashkil etgan shaklning hamma qismlarini bir-biriga boglovchi vositalardan biri hisoblanadi. Ritm xlosil qiladigan

boglanish kuchi anchagina bo`lib, u kostyumning hamma qismlariga ta`sir etib turadi. Ritm har qanday asarga musikiylik baxsh etadi, uni harakatga soladi. Ritm sababli bosh kompozitsion g`oyaning jarangdorligi ortadi, muayyan tartib va ravonlik kiritiladi.

Shakl elementlarining va ular urtasida intervalning takroriyligi ritmnig xarakterli alomati hisoblanadi. Aktsentli (etibor tortadigan) elementlar aktiv elementlar deyiladi, aktsentsizlari esa passiv lementlar deb yuritiladi. Aktiv elementlar urtasidagi oralik (interval) dinamik odim deb ataladi. Elementlar harakatining orta borish tezligi sur`at deyiladi.

Oddiy metrik qator, ya`ni bir xil shakllarning tyeng intervallarda takrorlanishi kompozitsiya to`zishga asos qilib olinadigan yeng oddiy qonuniyat hisoblanadi.

Metrik takrorlanishlar quyidagi singari har xil bo`lishi mumkin:tyeng shakllarning tyeng intervallarda takrorlanishi(21-rasm, a);

tyeng shakllarning har qaysi shakl tugagan joydan boshlab (intervalsiz)takrorlanishi(21-rasm, b);

shakl elementlarini radial joylashtirilishi (21-rasm,v).

Ikki yoqi undan ortik oddiy metrik qatorlarning birga kushilganidan iborat qator murakkab metrik qator deb ataladi.

Biroq metrik qatorni xaddan tashkari ko`p ishlatib bulmasligini yodda tutish kerak, chunki bir turli elementlarning tez-tez takrorlanishi zerikarli bir xillikka olib keladi.

Shakllarning va ular urtasidagi intervallarning birin - ketin qonuniy o`zgara borishi (kattalash yoqi kichraya borishi) shakllar joylanishining retmik tartibi deyiladi.

Retmik qator arifmetik progressiya yoqi geometrik progressiya qonuniyatlariga asoslangan bo`ladi. Qatorni arifmetik progressiyaga asoslanib to`zilgan qatordagi kushni elementlar yoqi intepvallar miqdori urtasida o`zgarmas fark bo`lishiga, geometrik progressiyaga asoslanib to`zilganda esa o`zgarmas nisbat bo`lishiga rioya kilinadi.

Ritmik tartiblar quyidagi sxemalarda bo`lishi mumkin:

tyeng elementlar takrorlanib turadi -yu, ular urtasidagi intervallar o`zgara boradi: shakl elementlari kattalasha yoqi kichraya boradi-yu, interval o`zgarimaydi;

shakl elementlari ham, ular urtasida intervallar ham kattalasha yoqi kichraya boradi;

shakl elementlari radial yunalishda kattalasha yoqi kichraya boradi.

Ritm kamaya boradigan yoqi orta boradigan bo`ladi. Bundagi sur`at sekin, o`rtacha, tez bo`lishi mumkin. Bu kostyumda dinamika hosil qiladi.

Odam gavdasining simmetriya ukiga nisbatan yechimlarini turli xil kilishdan foydalanib, shakl elementlarining ritmik to`zilishiga erishsa bo`ladi.

Kostyum kompozitsiyasida ritmik to`zilishning birgina turidan foydalanish kamdan-kam uchraydi. Shakl elementlarining metroritmik (murakkab ritm) bo`lib birga kushilganini ko`proq kurish mumkin.( 21-rasm)

Shaklning hamma elementlari - xajm, chiziqlar, faktura, detallar, bezak va hokazolar ritmik to`zilishi mumkin.

Kostyum elementlarining birlashish sxemasiga binoan ritmik to`zilish vertikal, gorizonlal, dioganal, spiral, nursimon, radial, bir tomonli, karama karshi, aralash yunalishli bo`ladi.

Elementlarning rivojlana borishida o`z qonuniyat borligi kompozitsiyani ritmik xal kilishning xarakterli xksusiyatidir. Bu qonuniyatning bo`zilishi, ya`ni aritmiya kompozitsiya yaxlit idroq etishiga putur etkazadi.

**Kontrast, nyuans, o`xshashlik.** Shakl elementlari o`xshashlik printsipiga kontrastlik printsipiga binoan birlashganbo`lishi, ya`ni hamma qismlar takrorlanishga asoslangan yoqi shakl rang, xajmlilik darajasi,fakturadagi chiziqlar jihatidan bir-biriga karama-karshi kuyilgan bo`lishi mumkin.

Kontrast kompozitsiyadagi turli yunalishlarning kurashi, bir-biriga karama-karshiligi bo`lib, bu rassomlarning hamma vaqt yeng kyengfoydalanib kelgan vositalaridan biri bo`lib kelgan. Kostyum tarixida kontrastlik temasi asar xarakteri, davr uslubi, avtor individualligi qandayligiga qarab yeng xilma-xil ifoda topib

asrlar davomida o`zgarib kelgan (21-rasm,a).

Kontrastga asoslanib to`zilgan kompozitsiyaning moxiyati uning ko`rinish ta`siri aktivligida. Nyuans nisbatlaridan kontrast nisbatlarining farki shundaki, bular darxol ko`zga tashlana koladi. Zerikarli geometrik shaklning ifodaliligini undagi ichki chiziqlarning, rangning,fakturaning bir biriga ta`siri kontrasligidan foydalanib oshirsa bo`ladi. Lekin kontrastning shakldagi roli xilma-xil: ba`zi xollarda u shaklning konstruktiv asosiga bog`liq bo`lsa, boshqa bir xollarda shakl strukturasini to`zish vositalariga bog`liq bo`ladi.

Shunisi galatiki, kontrastning kuchliligi uning zaif tomoni bo`lib chiqadi. Idroq etishga aktiv ta`sir utkazuvchi vosita bulaturib, unda salbiy tomonlar ham bor: u qishini tez charchatadi, tez-tez ishlatilavergan narsa tez jonga tegadi. Har qanday kuchli ta`sir etuvchi vosita extiyot bo`lishni talab etadi - bunday vositaning xaddan ortikligi har qanday taassurotni bo`zib yuboradi. Kontrast mana shunday. Kompozitsiyada undan foydalanganda muayyan darajadan oshmaslik, kontrast meyorini saklash kerak. Kontrast sport kiyimda(ranglar kontrasti), bashang kiyim bilan tomosha kiyimda ishlatilgani ma`kul.

O`xshashlik printsipi – bu asos qilib olingan elementning kostyum kompozitsiyasida tarakkiy topib, turli variantlarda rivojlana borishi. Ko`p xollarda kostyumda bitta shakl xukmronlik qilib, boshqa asosiy qismlarning hammasi unga buysungan bo`ladi-yu, lekin kostyum ko`pkavatli, murakkablashgan strukturadek taassurot koldiradi (21-rasm, b).

Kontrast bilan o`xshashlik kiyimning asosiy strukturasini belgilab beradi, lekin ayni vaqtda mayinroq «kurkamlik samarasi» beradigan qushimcha bo`lishi zaruriyatini tugdiradi; kompozitsiyadagi kontrast nozik akkompanement, jurlik qiladigan nyuanslar bo`lishi zaruratini kelitirib chikaradi – busiz kompozitsiya odatda dagal, primitiv bo`lib koladi. Shakl elementlarini nyuansli ishlash, aniq ravshan xal etilgan shaklda ozroqkina dekor (bezak) bo`lishi kompozitsiya g`oyasini fakat ta`kidlab beradi, uni ifodaliroq va obrazliroq darajaga kutaradi.

Nyuanslar kompozitsiya vositasida tariqasida proportsiyalarda, maromda, gul va tus nisbatlarida, dekorda, plastikada, dekalo kuyib chiziladigan murakkab

egri chiziqlar yordamida shakllar to`zishda va hokazolarda ko`rinadi (21-rasm,v).

Proportsiya nyuanslari , kontrastdagining aksincha, darxol tushunib etilmaydigan, osoyishta, o`ziga xos shakl asosini hosil qiladi.

Plastik nyuanslar avvalo shakl xarakterida ko`zga ko`rinib, unga san`atga xos, alohida iliklik beradi.

Nyuans – yeng nozik vosita. «Sal – pal degani kaerda boshlansa, san`at usha erda boshlanadi», -deganida buyuk K. Bryulov san`atning yeng xarakterli xususiyatini aytgan bo`lsa ajab emas.

Kostyum kompozitsiyasini nyuansli xal etilishi hamma yoshdagilarga, hamma tur komatlilarga va har qanday ishga mo`ljallanganda ham to`g`ri kelaveradi.

**Kostyumda qo'llaniladigan materiallarni asosiy hususiyatlari: struktura, faktura, naqsh.** Kostyum kompozitsiyasidagi materiallar va dekor. Kiyimni xajmli shakl deb karalganda uning qanday materiallar tikilganligini bilish kerak (gazlamalar, trikataj, mo`yna, charm, zamcharm, notukima materiallar kavat gazlamalar, plonka, yogoch, plastmassa, shisha va boshqalar).

Bu materiallardan har birining o`z plastik xususiyatlari (mayinli,osiluvchanlik, dagallik va shu kabilar), dekarativligi (faktura, rang, naqsh gul), fizik mexaniq xususiyatlari (zichlik, kayishkoqlik, cho`ziluvchanlik, kirishuvchanlik, titiluvchanlik va boshqalar) va gegenik xususiyatlari (havo utkazuvchanlik, nam utkazuvchanlik, chang utkazuvchanlik issiklik utkazuvchanlik va hokazo) bo`lib, shaklning xarakteri va konstruktivlik yechim qanday xal etilishini shu xususiyatlar belgilab beradi.

Fizik-mexanik xususiyatlarini bilish to`g`ri shakl berish uchun ham (masalan, trikatajning cho`ziluvchanligi qishi gavdasiga yopishib turadigan kiyim tiqish imkonini beradi), zarurat bo`lganda tiqishdan oldin materiallarni dekatirovka qilib olish (namlab-isitib ishlov berib, kirishmaydigan qilib olish) uchun ham imkon beradi.

Materiallarning gigienik xususiyatlari ham kiyim shaklini hosil kilishga ta`sir etadi. Masalan, havo o`tkazishi va nam o`tkazishi yomon materiallardan

bo`lgan kiyimlarni, kiyim tagidagi havo ventilyatsiya bo`lib turishi uchun, gavdaga yopishmaydigan ochiq shaklli qilib tiqish tavsiya etiladi.

Gazlamalarning dekorativ xususiyatlari shaklning geometrik ko`rinishini tanlashgina emas balki shakl hosil kilish printsiplarini ham, shakldagi ichki yechimlarini tanlashda ham katta ahamiyatga ega.

Faktura materialning yeng ifodali xususiyatlaridan biri hisoblanadi. U seziluvchan informatsiya manbai bo`lib xizmat qiladi. Faktura - bu material yo`zasining to`zilishini xarakterlovchi xususiyat. Faktura tabiiy (mo`yna, teri, yogoch, zamsha va boshqalar) va mexaniq yul bilan olingan hosila bo`ladi.Materiallar sillik, gadir-budur, yaltiroq, xira, tkli va hokazo fakturali bo`lishi mumkin. Hosila fakturaning xarakteri materialning qanday usulda (tukimachilikda,tur tuqishda va hokazo) olinaganiga, yo`zasidagi burtik qismlarining baland-pastligini va iplarining material zichligini belgilaydigan chalishishxarakteriga bog`liq. Satx birligiga to`g`ri keladigan faktura elementlarning katta kichigligi va miqdoriga qarab materialning yo`zasi ifodaliligi jihatdan har xil bkladi.Har bir fakturada badiiy obraz belgilari bo`ladi. Faktura sovuklik va iliklik, yengillik va vazminlik va boshqa tasurotlar hosil kilishi mumkin.

Faktura tanlashda mavsum, kiyimning nimaga mo`ljallangani, odamning jinsi, yoshi va gavda to`zilishi turi hisobga olinishi kerak. Kechkurungi bashang kiymlarga oliyjanob yaltillaydigan sidiga materiallar ishlatiladi, lekin olachipor gazlamalar zinxor-bazinxor to`g`ri kelmaydi. Gazlamaning faktura xususiyatlari umuman shaklni va uning qismlarini idroq kilishda ko`z aldanishi paydo bo`lishiga ta`sir ko`rsatishi mumkin. Masalan, ko`rinishi vazmin, xira, tukli fakturalar shaklni kattalashtirib ko`rsatadi. Faktura xususiyatlaiga etarli etibor bermaslik ko`pincha bitta kiyimda turli materiallar noqulay birga kushilib kolishiga olib keladi, bu shaklni bulinib va nomonant ko`rinadigan qilib kuyadi. Badiiy reja va yechimlar turliligi sababli, eksplutatsion, texnologik yoqi iktisodiy zarurat boisidan bitta kiyimda har xil fakturalar ishlatish mumkin. Bunda biror kiyimda ham, umuman kostyumda ham fakturalarning sifat va miqdor jizatdan birga kushilishlarini

bo`rttirib kursatgan ma`kul.

Shaklning va umuman gavdaning idroq etilishida naqsh gulning muhim ahamiyati bor.Shaklni naqsh guldan ajratib bulmaydi. Hamonki shaklda naqsh gul bor ekan, demak naqsh gul shaklning zarur kompanenti bir qism bo`lib turadi. Naqsh gulning ham kostyum singari ko`p asrli tarixi, xalklarga, millatlarga mansubligi bor. Materiallarning ko`pdan-ko`p xil gullarni quyidagi deqorativ mativlar ko`rinishida bo`ladi deb karash mumkin:

1. Abstrakt yoqi geometrik mativlar.
2. Realistik yoqi predmetli mativlar (usimliklar xayvonlar va predmetalr).

Aralash mativlardan iborat rasmlar juda ko`p ishlatiladi.
Rasm tasviri naturalistik yoqi stillashtirilgan, yassi yoqi xajmli bo`lishi mumkin.

Naqsh gul yo`zani bir tekis to`ldiribi turishi (motor-harakatlantiruvchi yoqi raport-takrorlanuvchi bo`lishi) mumkin, yoxud muayyan uchaskalarda joylashgan (ko`pon xolidagi yoqi xoshiyadagi) bo`lishi mumkin.
Rasm mayda, o`rtacha, yirik bo`lishi mumkin.

Turli kiyim turlarini modellashtirishda naqsh gul tanlashga jiddiy munosabatda bo`lishi kerak va nashk gul xarakteri bilan xususiyatlarini jins-yoshga, gavda to`zilishining tipiga, kiyim nimaga va qaysi mavsumga mo`ljallanganiga, tiqish metodiga qarab hisobga olish kerak.

Kundalik kiyimda mayda va o`rtacha gulli gazlama ishlatiladi, bordi-yu, gazlama yirik gulli bo`lsa, unda gullar soqin kolaritli bo`lishi kerak. ashang kiyimlarda va istroxat kiyimlarida rasmlar diopozani juda kyeng bo`ladi.

Rasmi murakkab (rasmi yirik, raporti katta, rsmi yunalishi, ko`pon holatidagi yoqi xoshiyadagi) materiallardan kiyim modellashtirigan hamma detallarda rasmlar yunalishi bir tomonga qarab bo`lishini, uk chiziqlarining joylanishini, umumiy rang yechimini hisobga olish kerak. Kiyimni bichayotganda juft detallarda, vitochkalarda, choklarda rasmlar mos kelishini, detallar chokida raport saklanishi nazorat qilib borishi kerak .

Naqsh gulli materiallarda turli chiziqlar, burtma choklar, deapirovkalar, mayda detallar kam seziladigan bo`lgani uchun ular ifodali chikmasligini yodda



**22-rasm. Kostyumda qo’llaniladigan materiallarni asosiy husussiyatlari: struktura, faktura, naqsh.**

tutish kerak. Ularni ko`rinarli kilish uchun sidirga gazlamadan mag`iz, tasma va hokazolar kuyib qushimcha bezash kerak bo`ladi.

Kostyumdagi deqorativ bezak. Bezak kompozitsiyaning mustakil elementi emas-bu qushimcha, ziynat bo`lib, kiyimda u yuk bo`lishi mumkin.

Kiyim  tarixining har qaysi boskichiga o`z bezak turlari va ularni ishlatishusullari xos bo`ladi.

Kiyimni modellash tajribasida ishlatiladigan bezak turlari xilma-xil bo`lib, ular kompozitsiyadagi asosiy g`oya bo`lishi yoqi kostyumdagi mulja\llangan badiiy-obrazli niyatni kuchaytiradigan va boyitadigan bo`lishi mumkin.Bzakdan kiyim shaklini yoqi uning bir qismini bo`rttirib, shavklini bulaklavrga ajratib ko`rsatish uchun foydalaniladi. Deqorativ bezakning dekarativ va konstruktiv ahamiyati (draperovka, burtma burma , mayda taxlama, gofre, plisse, va hokazo, deqorativ va utilitar ahamiyati (bel boglar, koplama chuntaklar, tugmalar, furnitura va shu kabilar) va fakat dekarativ harakatga ahamiyati (kashtalar, quyma burmalar, aplikatsiya va boshqalar) bo`lishi mumkin.

Hozirgi son sanoqsiz bezaklarni materiali va shakliga binoan quyidagi gruppalarga ajratsa bo`ladi:

1. Barcha turdagi burtirma choklarni, taxlamalar burtma burmalar, trapirovkalar, plissiy, gofre, bezak baxiya qatorlarni tiqish natijasida hosil bo`ladigan bezaklar.
2. Kiyimni o`z aterialidan yoqi bezak gazlamadan yasalgan detallar yordamida bezash.
3. Maxsus bezak materiallar (tur, tasma, popuk, lentalar, gullar va boshqalar) yordamida bezash.
4. Furnitura (tugmalar, tuqilar, dekarativ pistonlar, bloqlar-pistonlar, «molniyalar» va boshqalar).
5. Kashta, koplama bezak, emblemalar.
6. Boshqa meterillar (mo`yna - teri, trikataj, zamsha, tur palotno va hokazolar) yordamida bezash.
7. Kiyim detallarini bosma gul solib bezash.

# 4. ZAMONAVIY KOSTYUM DIZAYNIDA MILLIY ANA'ANALARNI QO'LLASH

Zamonaviy kostyum dizaynida milliy an'analarni o'zlashtirish o'ziga xos xususiyatlari postmodernizm, jumladan iqtibos (stitata) uslubi (o'zgartirmasdan kostyum qismlarini o'zlashtirish va modelda har xil ijodiy manbalardan elementlarni aralashtirish) bilan bog'liq. Iqtibos sifatida milliy kostyumning detali, bezak elementi, naqshi, bichimi yoki rang gammasi bo'lishi mumkin. Har xil iqtiboslarni kombinastiyalab, turli halqlarning kostyum elementlarini aralashtirib, dizayner 1970 yillarga o'xshash aniq va taniqli ijodiy manba bilan bog'liq bo'lmagan mutlaqo yangi siymoni yaratdi. Jan-Pol Gote, Dj.Galyano, R. Djili etnik mavzulari bo'yicha o'z modellarini aynan shunday yaratishadi.

Kostyum modellashda milliy kostyumning bichimini o'zlashtirish mahsus sohadir. Etnik uslub allaqachon jahon xalqlarining kostyum shaklini zamonaviy kostyumga moslashtirdi.

Sharq an'analarining g'arb dizayniga ta'siri shakllar, ranglar (Sharq mamlakatlar rang madaniyatidan ko'p modali ranglar o'zlashtirilgandi – indigo, "zirovarlar rangi", "xitoycha sariq". "buddaviy to'q sariq" va b.), aksessuarlar, amaliy san'atining o'zlashtirilishi bilan cheklanmaydi.

Hozir jahonda didlar plyuralizmi (xilma xilligi) va estetik ideallarning tenghuquqligi, shu jumladan go'zallik to'g'risidagi tasavvur, ba'zi etnomadaniyat an'analari bilan bog'liq ravishda yuz bermoqda. Evropa g'o'zallik turi qatorida modada evropalik bo'lmagan inson siymolari tenghuquqlik o'rinni egalladi. 1960 yy. (P.Karden va P.Rabannada) podiumga qora tanli manekenshchistalar chiqdi (Noemi va b.) va faqat oq tanalilargina go'zallik etaloni bo'lmasligini isbotlashdi, modomiki manekenshchistaning siymosi – bu doimo o'ziga xos vaqt etaloni deb xisoblanadi. Podiumlarda va moda jurnallarining sahifalaridgi har xil insonlar katta ahamiyatga ega. Bu bilan har bir millat, xalq va insonning o'ziga xosligi qaror topadi.

Zamonaviy madaniyatining prinstipial asosi – estetik plyuralizm, go'zallik xaqida har xil milliy tushunchalarni, ko'pincha bir biriga o'xshamaydigan,

tenghuquqlikni nazarda tutadi. Zamonaviy modada bir xil modali shaklning etaloni, har bir insonning individualligi, mislsizligi qadrlanmoqda.

G'arb va sharq an'analarining sintezi an'anaviy etnik va evropa kiyimiga nisbatan insonga individuallikni namoyon etishga, ya'ni sifatli kiyimni loyihalashga imkon beradi. Hattoki, 1960 yy. xippilar boshqa xalqlar milliy kostyumlari asosida evropa uniformasiga ishbilarmon inson kostyumi alternativa ravishda kiyim yaratishdi.

Kostyum loyihalashda yangicha yondoshish sharqona kostyumning o'zgarish va transformastiyalariga moyil erkin loyihalarni, shuningdek kiyinishdagi individuallikning evropacha an'analariga xos xususiyatlarni birlashtirgan yapon dizaynerlariga ham taaluqlidir. Aynan yapon dizaynerlarining ijodi madaniy an'analar muloqatining yuksak namunalarini o'zida mujassamlshtiradi, inchunin evropalik bo'lmagan dizaynerlardan aynan yaponlar modasiga juda katta ta'sir etishdi. Kostyum dizaynida "yapon yo'nalishi" borligini tan olishimiz kerak.

Zamonaviy dizayn uchun yapon badiiy an'analari loyihalashning ekologik nuqtai nazardan muvofiqlashtirilganligi bilan g'oyat qiziqarlidir.

Turmush to'g'risidagi buddaviylik ta'limotining asosiy tarkibiy qismlari muhit dizayni uchun muhimdir. Yapon an'anaviyligi ko'p asrlar davomida yapon madaniyati an'anasini saqlash va ta'minlashga qaratilgan madaniyat rivojida muhim tajribadir. O'tmish zamonaviy bilan doim hamnafas bo'lgan, u hozir ham mavjud va zamon bilan doimo muloqotda.

An'ana bilan zamaonaviyni uyg'un bo'lishi yapon san'ati yorqin misoldir.

Yapon dizaynerlari zamonaviy kiyim yaratganda an'anadagi kiyimning konkret shaklini o'zlashtirmasdan, kostyum yaratishning umumiy prinstiplarini, kompozistion usullarini, badiiy ijodiy an'analarini taqlid etishadi. Dastavval ular qo'lay, oddiy, universal bo'lgan sharq kiyimning bichimini asos qilib olishadi. Erkin bichim – sharq kiyimining muhim hossai: u tanani deformastiyalamasdan, tana va kiyim orasida ma'lum masofani hosil qiladi. Yapon kiyimi asosida oddiy geometrik shakllar – to'g'riburchak va trapestiya namoyon bo'ladi. Yapon

dizaynerlari bu prinstipni ko'pincha qo'llashadi. Bunday modellar harakat uchun qulay, erkinlik va komfort yaratadi.

Zamonaviy modellarda o'ralishga, buyumlarni upakovka qilishga, kiyimda ko'p qavtlilikka yaponlarning qiziqishi seziladi. Bu xususiyat yapon an'anasiga taaluqli – erkinliksiz, kengsiz go'zallik hosil bo'lmaydi; qachonki go'zallik individual siymoda namoyon bo'lsa shundagina haqiqat ro'yobga chiqadi. Tabiylikka amal qilish – tabiatga zo'rlik qilmaslik, har bir buyumning yagonaligini his qilish yapon san'atiga oid xususiyatdir.

Iste'molchining ijodiga bosh qo'shish g'oyasi yapon an'anasining asosidir. Inson boshqa insonlar kontekstida tasavvur qilinganda, insoniyat uni o'zaro bog'lanish shakli va imkoniyat deb tushinadigan kontekstual ong ularga xos. Yaponiyada ba'zi an'anaviy san'at turlari birgalikda san'at va kundalik hayot orasidagi farqni yo'q qilgan va san'atga keng ijtimoiy asosni jalb etgan ijodning bir shakli bo'ldi. Sub'ekt va ob'ekt, ijodkor va passiv tomoshabin orasidagi farqni yo'q qilish muhit dizaynining maqsadidir va aynan shu g'oyani yapon dizaynerlari kostyum dizaynida ilk bor kiritishdi.

Iste'molchining bosh qo'shishi va birgalikda ijod qilishi dizayner ijodining tugallanmagan natijasi bo'lishi mumkin. Yapon san'atida asarning nihoyasiga etqizilishi hayotning abadiy harakati bilan qarama-qarshi hisoblanadi, u shuningdek vaqtning abadiy oqimida turmushning o'zgaruvchanligi to'g'risidagi buddaviy ta'limotiga ham zid keladi. Go'zallik manbasi – umrning uzoqligida emas, shuning uchun dizayner yaratgan buyum rivojlanadi, iste'molchi bilan aloqa qiladi.

Spontanlik, improvizastiya va kiyish jarayonida transformastiya etish- bu barcha xususiyatlar yapon dizaynerlari kiyimga taaluqli va iste'molchiga ijodiy jaryonda ishtiroq etish imkonini beradi.

Zamonaviy madaniyatga juda muhim bo'lgan yapon an'anasining yana bir xususiyati turli ta'sirlarni assimilyastiya etish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Kostyum dizaynida yapon modelerlari, kostyumda evropa va yapon badiiy an'analarini birlashtirib, mutlaqo yangi kiyimni yaratishdi, biz ularni na yaponcha

na evropacha kiyim sifatida, balki kelajak kiyimi sifatida tasvvur etishimiz mumkin.

Dizaynda yapon va evropa an'analarning sintezining namunasi shunga ishontiradiki, aynan madaniyatlar muloqoti yangi stivilizastiyada yuzaga kelayotgan madaniyatiga muhim ekologik xususiyatlarni in'om etishi mumkin.

O'zbekiston dizaynerlari o'z ijodida an'anaviy matolarni (xon-atlas, shoyi, beqasam va adrasni), bezak, aksessuarlar va taqinchoqlarni keng qo'llashadi. Ular milliy kiyimlarga yangi xayot berishadi va milliy matolardan zamonaviy liboslarni taqdim etishadi.

Moddiy madaniyat an'analari boshqa xalqlarning, ayniqsa "ekzotik" mintaqalarning zamonaviy dizaynerlari e'tiborni ham jalb etmoqda. Yangi dizayn paydo bo'lishiga boshqa madaniyatlar amalda bitmas-tuganmas manbadir. Insonni, ayniqsa, g'arbdagilarning barchasi noma'lum, ajoyib, kundalikda uchramaydigan, odatdan farqlanadigan "ekzotika" doimo jalb etgan.

Moda "shabadasi ayollarning an'anaviy ko'ylagiga o'zgartirishlar kiritib boradi. Koketkalar uzunligi va shakli (oval, to'g'ri to'rtburchak, trapesiyasimon), ko'ylak uzunligi va shakli (to'g'ri to'rtburchak, trape-siyasimon) va shakl hosil qilish prinsiplari (burmalar,taxlamalar,plisse,gofri,qiya bichiq,klyosh,qiyiq bo'laklar),yeng uzunligi, shakli va bichimi (o'tqazma, raglan, yaxlit bichilgan) o'zgarib bormoqda: yoqa o'mizining va yoqa turlarining ko'p xilligi ko'zga tashlanadi.Ishlatiladigan dekorativ bezak turlari,gazlama turi, rangi ham turlichadir. Internetdan olingan xabarlarga ko'ra joriy yilda serjilo ranglar,dilrabo ohanglar,unutilmas damlar,betakror hislarlarga boy bo'lgan anjuman **ART WEEK STYLE.UZ-2011** moda va san'at haftaligi o'z yakuniga yetdi. Bu anjuman mazkur loyiha muallifi Gulnora Karimova tomonidan ko'krak bezi saratoni tashxisi qo'yilgan ayollarni qo'llab-quvvatlash maqsadida maxsus uyushtirildi.

**ART WEEK STYLE.UZ-2011** loyihasi doirasida poytaxtimizning eng yaxshi galereyalarida "An'anaviy o'zbek san'ati,dizayni va moda " ko'rgazmasi, **"KEMYUNG UNIVERSITY COLLEJE OF FASHION** "

ko'rgazmasi,"Madaniy meros va moda sohasidagi zamonaviy o'zgarishlar"ko'rgazmasi, "Kashtachilik va to'qimachilik galereyasining taqdimot marosimi "o'tkazildi.Bu anjumanda London moda kolleji mutaxassislari tomonidan o'tkazilgan "Modada milliy an'analar va o'zgarishlar uyg'unlashuvi"mavzusidagi mahorat darslari; Fransiyaning Lion shahridagi Martiniere Diderot liseyi mutaxasislari tomonidan o'tkazilgan"Liboslarni zamonaviy modellashtirish-turli tuzilishdagi matolardan yangi shakllar yaratish" mavzusidagi mahorat darslari;amerikalik stilist Keyt Bryusterning mahorat darslari;London moda kollejining tadbirkorlik kurslari yuqori tajribaga ega bo'lgan soha mutaxassislarining beqiyos tajriba maktabi va ta'lim dasturi bo'lganligidan dalolat beradi. Ana shunday anjumanlarning o'tkazilishining o'ziyoq milliy qadriyatlarimizning hech qachon o'lmasligiga ishoradir **.**

Mutahassislikka oid dizaynerlar va mutahassislikka oid emas ustalar turli mamlakatlarda an'anaviy hunarmandchilikni tiklash rag'bati shu bilan bog'liq (ayniqsa hunarmandlik an'anasi Finlyandiya va Yaponiyada hech qachon uzilmagan). O'zbekistonda hunarmandlik an'analari xalq kosibkorligida saqlanib qolgan (kulolchilikda, to'qimachilikda, zargarlikda va b.).

O'zbekiston dizaynerlari o'z ijodida an'anaviy matolarni (xon-atlas, shoyi, beqasam va adrasni), bezak, aksessuarlar va taqinchoqlarni keng qo'llashadi. Ular milliy kiyimlarga yangi xayot berishadi va milliy matolardan zamonaviy liboslarni taqdim etishadi.

Moddiy madaniyat an'analari boshqa xalqlarning, ayniqsa "ekzotik" mintaqalarning zamonaviy dizaynerlari e'tiborni ham jalb etmoqda. Yangi dizayn paydo bo'lishiga boshqa madaniyatlar amalda bitmas-tuganmas manbadir. Insonni, ayniqsa, g'arbdagilarning barchasi noma'lum, ajoyib, kundalikda uchramaydigan, odatdan farqlanadigan "ekzotika" doimo jalb etgan.








**23- rasm. XXI asr ayollarining kiymlarida uzbek milliy an’analarning qo’llanishi**

Ammo, zamonaviy madaniyatning uchinchi dunyo mamlakatlari an'analari bilan qiziqishi faqat yangilik va ajoibotlarni istashdan iborat bo'lmagan – sharq falsafasi, dini, tabiat va insonga munosabatida yangi dunyoqarashning yangi alomatlarini qidirish, kelajak stivilizastiyaning asosi bo'lishi mumkin. G'arb stivilizastiyasining inqirozi "stivlizastiyalashmagan" xalqlarni hayotiy tajribasi G'arb munosabatining o'zgarishiga sabab bo'ldi, madomiki aynan Sharqda inson tabiat mavjudoti bo'lgan ekan, shu bois boshqalari bilan ham uyg'unlikda yashamoqda. Postindustrial stivilizastiya g'arb va sharq ana'nalari sintezi asosida barpo etilmoqda.Kiyim modellashda boshqa xalqlarning madaniy an'analariga nazar tashlash qadimdan ma'lum. Evropaliklarni Sharq ekzotikasi, boyligi va nozik didi bilan jalb etib kelgan. Evropa kostyum tarixining har bir davrida salb yurishlari davridan zamonaviy modadagi "etnik uslubigacha" sharq ta'sirini sezish mumkin. Evropa kostyumidagi ko'p yangiliklar Sharq yoki Amerikadan kelgan (X.Kolumb Amerikani ixtiro qilgandan so'ng).

# XULOSA

Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siysatda mamlakat hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishga, ayniqsa kelajak avlodni milliy mustaqillik mafkura ruhida tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda ta'lim olayotgan yoshlar Respublikamizning kelajagidir. Ularni har tomonlama etuk insonlar qilib tayyorlash ta'lim-tarbiya muasasalarining asosiy vazifalaridir. Ular uchun yuksak malakali o`qitiuvchilar tayyorlash va ularning malakasini oshirish esa kadrlar tayyorlash sohasidagi ustivor vazifalardan sanaladi. Prezidentimiz I.A.Karimov o`zining «Buyuk keajagimizning huquqiy kafolati» nomli risolisida shunday deb ta'kidlagan edilar: «Tarbiyachi-ustoz bo`lish uchun boshqalarning aql idrokini o`stirish ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo tarbiyachining o`zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday fazilatlarga ega bo`lishini taqozo etadi». Shuning uchun ham o`qituvchi oldiga qo`yiladigan vazifalar o`ta murakkab, ma'suliyatli va ayni paytda sharaflidir. Rivojlangan davlatlar qatoridan o`rin olishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan O`zbekistonimizda xalq xo`jaligining barcha tarmoqlari kabi ta'lim sohasida ham ilg`or texnologiyalarni joriy etishga va shu orqali ta'lim mazmunini jaxon andozalari darajasiga olib chiqish barasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. ."Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch."I.A.Karimov.Toshkent 2008
2. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish taraqqiyotimizning muhim omilidir.- T.:2010
3. Karimov I.A "Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlaktni modernizatsiya va islox etishdir"T."O'zbekiston" 2005y
4. Q.M.Abdullayeva,N.S.Gaipova,M.A.Gafurova "Tikuv buyumlarini loyihalash, modellash va badiiy bezash."Toshkent-"Noshir"-2010
5. X.N.Komilova,N.K.Xamroyeva"Kiyim loyihalash asoslari'Toshkent 2005
6. A.Avloniy"Turkiy Guliston yoxud axloq"asari
7. T.M.Poshshaxo'jayeva,Sh.A.Abdurahmonova."Xizmat ko'rsatish mehnati"
8. N.Norqulov"Oz-oz o'rganib dono bo'lur"hikmatlar to'plami.
9. A.P.Rogova"Erkaklar va bolalar ustki kiyimini loyihalash asoslari"Toshkent 1988
10. ."Uy-ro'zg'or ensiklopediyasi".Toshkent 1982
11. O.Alimardonova,Q.Nazarov"Hayot va turmush odobi"Toshkent1996